

MAMLAKATIMIZDA BANK XIZMATLARINING RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI

Serjanov Aymurat Medetbaevich

Qoraqalpoq davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12685113>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar asosida tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi tadqiq etilgan. Xususan, bank xizmatlarida 2000 yildan boshlab yillar kesimida erishilgan yutuq va natijalar tegishli argumentlar bilan asoslab berilgan. Muallif tomonidan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishda bank tizimining institutsional asoslarini takomillashtirish, bank xizmatlarida universallashtirishni yanada oshirish, shuningdek aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: bank faoliyati, bank xizmatlari rivojlanishi, institutsional asoslar, xizmatlarni universallashtirish, tadbirkorlik subyektlari, bank chakana mahsulotlari.

Аннотация: В статье рассматривается развитие финансовых услуг, предоставляемых коммерческими банками на основе экономических реформ, реализуемых в Узбекистане. В частности, соответствующими аргументами обоснованы достижения и результаты, достигнутые в сфере банковских услуг с 2000 года. Автором подчеркнута важность совершенствования институциональных основ банковской системы, дальнейшего повышения универсализации банковских услуг, а также развития розничных банковских продуктов для населения и субъектов предпринимательства в развитии финансовых услуг.

Ключевые слова: банковская деятельность, развитие банковских услуг, институциональные основы, универсализация услуг, субъекты предпринимательства, банковские розничные продукты.

Abstract: The article examines the development of financial services provided by commercial banks based on the economic reforms implemented in Uzbekistan. In particular, the achievements and results achieved in banking services since 2000 are justified with relevant arguments. The author emphasized the importance of improving the institutional foundations of the banking system, further increasing the universalization of banking services, as well as the development of retail banking products for the population and business entities in the development of financial services.

Key words: banking activity, development of banking services, institutional foundations, universalization of services, business entities, banking retail products.

Barchaga ma'lumki, 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi. Strategiyada bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilib, xususan:

- bank tizimida davlatning yuqori darajadagi ishtiroki natijasida moliyaviy va inson resurslaridan samarasiz foydalanilayotganligi, ularda korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;
- davlat ishtirokidagi banklarning ustuvor dasturlar, sohalar va davlat ulushiga ega korxonalarga bozor stavkalaridan kam bo'lgan stavkalarda kreditlar ajratuvchi an'anaviy "taraqqiyot banklari" vazifasini bajarishi;
- davlat ishtirokidagi banklar biznes-modellarining asosan korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilganligi, nobank moliya tashkilotlarining roli sustligi, shuningdek innovatsiyalar va axborot tizimlarining yaxshi rivojlanmaganligi sababli moliyaviy ommaboplik darajasining pastligi tizimda tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirayotganligi ta'kidlangan [1].

Darhahiqat O'zbekistonda tijorat banklari uzoq evolyutsion rivojlanish yo'lni bosib o'tib, bunda qator mashaqatli qiyinchiliklarni ham yengib o'tishiga muvoffaq bo'lmoqda. Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so'nggi yillarda respublikada asosiy tamoyil - ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank xizmatlari faoliyatida universallashtirishni tobora rivojlantirish kuzatilmoqda.

Uzoq yillar emas 2000-yildan boshlangan mazkur davr O'zbekiston bank tizimini mustahkamlashda salmoqli yutuqlarga erishilgani bilan ahamiyatlidir. Jumladan bank tizimi oldiga uning rivojlanish istiqbollari belgilab beruvchi strategik vazifalar qo'yildi. Vazifalardan birinchisi banklar moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi - O'zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorida faolligini ta'minlash edi. Xususan 2001 yilning 1 iyulidan e'tiboran kichik biznes korxonalari o'zlari ishlab chiqargan eksport tovarlar (ish va xizmatlar)ni bank muassasalari kassalari orqali belgilangan tartibda valyuta ulushini o'z hisobiga o'tkazish yo'li bilan naqd xorijiy valyutada amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada bank tizimi bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur hamkorlik rivojiga turtki bergan muhim omillar sifatida banklar tomonidan xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishi, banklarda raqobatchilik muhitining yuzaga kelishi, iqtisodiyotda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq jarayonlarni ta'kidlash mumkin. Bunda banklar kredit berish jarayonining rivojlanganini, mijozlar so'rovlarini sinchkovlik bilan o'rgana boshlaganini va bank xodimlarida mijozlarning talab-ehtiyojlariga javoban tez harakat qilish qobiliyati shakllanganligi muhim hodisa bo'ldi. Shuningdek, aholining banklardagi omonatlarini himoyalashning ishonchli va samarali mexanizmi yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 05.04.2002 yildagi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi 360-II-son Qonuni [2] doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Davlat-tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi.

Ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot sari bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko'zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Mazkur hujjatlar zahirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini bermoqda. Bunday yondashuvlar, nazarimizda, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuq bo'lib hisoblanadi.

Aytish o'rinlidir, 2003-2004 yillarda mamlakatimizda liberallashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida bank tizimini rivojlantirish davriga to'g'ri keldi. Bu davrda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, banklarni respublikamizdagi jadal yangilanishlarning moliyaviy tayanchiga aylantirish maqsadi qo'yildi. Uning muvaffaqiyati banklarning kelgusi rivojida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki korxonalarni aktsiyadorlashtirish va ularning mulkchilik shaklini o'zgartirish jarayonlari jadallashdi. Banklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqib, o'z rivojlanish kontseptsiyasiga rioya etgan holda xizmat ko'rsatish strategiyasini takomillashtirib bordi. Ularning resurs bazasini kengaytirish va kapitallashuv darajasini oshirish o'z faoliyati yo'nalishlarini diversifikatsiyalash, yangi aktsiyadorlarning mablag'larini jalb etish, IT-texnologiyalar asosida yangi bank mahsulotlari va instrumentlarini ishlab chiqish hisobiga amalga oshirildi.

Shu bilan birga, valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'm konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 2003 yilning 15 oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg'armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada tadbirkorlik subyektlari joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu masala yuzasidan O'zbekistonning tashqi mablag'larni jalb etmay, amalda o'z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e'tirofga sazovordir. Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

Iqtisodiy islohotlarda bank tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar davom ettirilib uning asosiy yo'nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aktsiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga kuchaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini yanada kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo'yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etishimiz lozim.

Alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda chakana xizmatlar rivoji xalqaro bank va moliya kapitalini keng jalb qilgan holda qo'shma banklarning tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Respublikamiz bank bozori 100 foizli xususiy kapital asosidagi yangi banklarning vujudga kelishi natijasida tubdan o'zgardi. Xususiy banklarning xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirib yuborgani mamlakat bank tizimi rivojida eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki soliq imtiyozlari va kadrlarni tayyorlash jarayonida texnikaviy ko'mak taqdim etgan holda ularning rivojlanishini muntazam rag'batlantirib bormoqda. Ayni paytda xususiy banklar soni tijorat banklari umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etadi.

Respublikada xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek mamlakat YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi oshishiga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa “2005–2007 yillarga mo’ljallangan bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish dasturi”da belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi banklar kapitallashuv darajasi va ko’rsatkichlarining barqaror o’sishini ta’minlagan holda, bank tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirishda muhim omil bo’ldi. Bu borada pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish, banklarda aholi omonatlarini ko’paytirishni rag’batlantirishga ustuvor yo’nalishlar sifatida e’tibor qaratildi. Rivojlanish sari doimiy ravishda intilayotgan tijorat banklariga mamlakatimiz hukumati tomonidan o’z vaqtida taqdim etilgan imtiyozlar kredit muassasalari o’z yangi instrumentlarini ishlab chiqadigan va taklif qiladigan bank-moliya bozorining shakllanishida xissasi ulkan bo’ldi. 2008-2009 yillardagi bank tizimi xususiyati aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish bank faoliyatining muhim yo’nalishiga aylandi. Mazkur yo’nalishda banklar o’z faoliyatini dunyoviy amaliyotning “oltin” printsiptan kelib chiqqan holda olib borishdi. Ya’ni, aholiga ko’rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Ushbu davrda “yalpi ichki mahsulotga nisbatan xizmatlar ko’rsatishning o’sib boorish tendentsiyasi kuzatila boshlandi, buning natijasida mazkur tarmoqning mamlakatimiz hududlari iqtisodiyotiga qo’shayotgan hissasi oshdi. Bu holat, bizningcha, respublikaning yirik sanoat tarmoqlari: savdo va umumiy ovqatlanish, transport va aloqa, kommunal, moliya va boshqalarning hissasi bilan bog’liq. Eng muhimi, avvallari asosan davlat tomonidan ko’rsatilayotgan xizmatlar asta-sekin xususiy bozor xarakteriga ega bo’ldi” [3].

Xulosa qilib aytganimizda, davom ettirilayotgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, “Iste’mol krediti to’g’risida”gi va “Ipoteka to’g’risida”gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytiradi. Demak O’zbekiston tijorat banklari respublikamizdagi va jahon bank hamjamiyatidagi yangi voqelikka javoban o’zlari taklif etayotgan xizmatlari to’plamini muntazam kengaytirib boradi, bozorga yangi bank mahsulotlarini chiqaradi va bugungi kunda ayni paytda ham moliya institutlari faoliyatining xalqaro standartlarini faol joriy etishni izchil amalga oshirmoqda.

References:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “**2020-2025 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to’g’risida**”gi PF-5992-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>.
2. O’zbekiston Respublikasining 05.04.2002 yildagi “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to’g’risida”gi 360-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz>.
3. Musagaliev A.J., and etc. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / Asian Journal of Advances in Research. Volume 17. Issue 4. 2022. - Pages: 221-226.